





















Dupli Checker Plagiarism Report











Originality Report











 32% Plagiarized Content	 14% Exact Matched	 68% Unique Content	1519 Words
	 18% Partial Matched		15477 Characters

Primary Sources

1	http://kitob.sies.uz/frontend/web/k... Ob'ektning holatini iqtisodiy tahlil qilish va uning natijalari asosida takliflar ishlab chiqish; ... Istiqbolli tahlil joriy tahlilning natijalari va ma ...	 0.79%
2	https://alpha.samdaq.edu.uz/files... Nov 18, 2013 — ... O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga murojaatnomasida ta'kidlanganidek ...	 0.79%
3	https://ares.uz/storage/app/medi... Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-mart kungi «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi togrisida»gi...	 0.79%
4	https://lex.uz/acts/-4751561 ... va kelgusi yilda ushbu tizim tajriba tariqasida Sirdaryo viloyatida ishga tushirilsin; ... va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid.	 0.79%
5	https://mitc.uz/uz/news/1596 Aug 12, 2020 — Prezidentimiz parlamentga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini...	 0.79%
6	http://jeev.innovascience.uz/index... Respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda olib borilayotgan izchil siyosat natijasidagi rivojlanish ta'lim tizimida ham o'qitishning yangi shakllarni joriy etishni...	 0.79%

7	https://www.researchgate.net/publ... siyosat natijasidagi rivojlanish ta'lim tizimida ham o'qitishning yangi shakllarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu sababli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari...	 1.57%
8	https://www.academia.edu/123059... ... etmoqda. Shu sababli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim tizimini yuqori darajada tashkil etish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan ...	 1.57%
9	WEBShu sababli, axborot-kommun... WEBShu sababli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim tizimini yuqori sifat darajasida tashkil etish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. ...	 0.79%
10	https://interoncof.com/index.php/s... Annotatsiya: Jamiyat rivojining yangi shart-sharoitlari axborotlashgan jamiyat talablariga javob beruvchi zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanib ...	 0.79%
11	https://nauchniyimpuls.ru/index.ph... Axborot texnologiyalari hayotimizning turli jabhalariga keng va jadal kirib borishi axborotlashgan jamiyatni shakllantirishga zamin yaratmoqda ...	 0.79%
12	https://namdu.uz/media/Books/pd... Jun 7, 2024 – ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yoMlari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.	 1.57%
13	https://www.researchgate.net/publ... Jan 31, 2021 – Birinchisi, oliy o'quv yurtlarida an'anaviy ta'lim olish tizimi va masofaviy o'qitish tizimini o'zaro uzviy bog'lagan holda o'qitishdir. Buning ...	 0.79%
14	https://www.researchgate.net/publ... Nov 11, 2023 – ... Q.T.Olimov, D.M.Sayfurov,. N.I.Taylaqov, R.H.Hamdamiy va boshqa. 41. ko'pgina olimlar tomonidan ilmiy- ... va muhim ko'nikma, qobiliyat va.	 1.57%
15	https://www.researchgate.net/publ... Nov 11, 2023 – ularning sinflari hamda malaka oshirishda masofaviy ta'limdan foydalanish. imkoniyatlari tadqiq qilingan. 42 . N.A.Muslimovning ilmiy-tadqiqot ...	 1.57%
16	https://tyiu.uz/elibrary/books/2023... metodik ta'minoti ustida ish olib borgan. N. A. Muslimovning tadqiqot ishida o'qituvchi shaxsini masofaviy ta'lim va pedagogik, axborot, texnik-...	 0.79%

17	https://cyberleninka.ru/article/n/el... by D Sherbekov · 2022 — Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi / o'qitish tamoyili / malaka oshirish. / "Continuous professional education" electronic platform / ...	 0.79%
18	https://gov.uz/madaniyat/news/vi... Aug 20, 2024 — Ta'lim muassasalarida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida 10 dan ziyod turdosh ta'lim muassasalari va tashkilotlar o'rtasida ikki ...	 0.79%
19	https://namdu.uz/media/Books/pd... by A XODJABOYEV · Cited by 19 — - kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'Jim, fan va ... 6) Kasbiy tayyorgarlik mazmunining majburiy minimumi. 7)...	 0.79%
20	https://www.academia.edu/1117124... Mar 17, 2022 — ... axborotlarni qidirish, ma'lumotlar almashish, ma'lumotlar bazasiga murojaat etish, INTERNET tizimidagi davriy axborot manbalaridan ...	 0.79%
21	https://www.airsupplycn.com/uz/i... Qanday imtiyozlarga ega bo'lishingiz mumkin? Intermodal yuk tashishning afzalliklari quyidagilardan iborat: Iqtisodiy samarali. Siz raqobatbardosh narxlardan ...	 0.79%
22	https://research-edu.com/index.p... Har bir fanga mo'ljallangan elektron o'quv qo'llanma eng kamida uchta: ta'limiy, ... qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi, o'z bilimini o'zi ...	 0.79%
23	https://kg.oxbridgeschool.uz/talim... Ta'limdagi o'yin usullari bolalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, bu esa o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Ular kognitiv, ijtimoiy va ...	 0.79%
24	https://www.slideshare.net/slidesh... Oct 28, 2023 — Ta'lim mazmunini tanlash ehtiyojlari Ijtimoiy ishlab chiqarishningeng zarur ehtiyojlari,ijtimoiy tuzumning xususiyatlari Davlatning xalq ta ...	 0.79%
25	http://nauchniyimpuls.ru/index.ph... Ushbu maqolada biz elektron va raqamli resurslar zamonaviy ta'limda qanday ... mulohazalarni o'rganish imkoniyati ta'lim samaradorligini oshiradi. Biroq ...	 0.79%
26	https://tilvaadabiyot.uz/f/8-son_2... texnika va elektron o'yinchoqlar yo'nalishlari bo'yicha ijodiy ishlari bilan ... kasb-hunarga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, ularning ...	 0.79%

27	http://portal.guldu.uz/download-e... bilan ta'minlanishini yo'lga qo'yish, laboratoriya amaliy ishlarini oldindan tayyorlab qo'yish va h.k. Shu sohadagi ko'p yillik amaliy faoliyatimiz, kasb-hunar ...	 0.79%
28	https://api.scienceweb.uz/storage/... Ikkinchi yo'nalish adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson qadr ... O'zini o'zi band qilish deganda nimani tushunasiz? 3. Jismoniy tarbiya ...	 0.79%
29	https://oxbridgeschool.uz/texnolog... O'qituvchilarni o'qitish: texnologiyalarni o'quv jarayoniga muvaffaqiyatli kiritish uchun o'qituvchilar kerakli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.	 0.79%
30	https://namdu.uz/media/Books/pd... Jun 11, 2024 — U elektron pochtaning ma'lumotlarini saqlash va tez toppish imkonini beradi, ular o'z navbatida sudda kerak bo'lishi mumkin. Servis.	 0.79%
31	https://zenodo.org/records/13361214 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi, 2018 y. 29 dekabr. 2. O'zbekiston Respublikasi ...	 0.79%
32	https://interoncof.com/index.php/... by T Gulzoda · 2024 — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi, Xalq so'zi 2020 yil 25 yanvar. Abdullaeva M.N. va boshqala...	 0.79%
33	https://cyberleninka.ru/article/n/in... by NA Xushmatova · 2024 — Mazkur maqolada professional ta'lim muassasalari va korxonalar o'rtasida innovatsion hamkorlik asosida o'quvchilarning kasbiy...	 0.79%
34	http://ilmiyanjumanlar.uz/uploads... tashkilotlaridagi zamonaviy rahbarlar va uning jamiyatdagi o'rni va nodavlat ta'lim tashkilotini mustahkamlashda zamonaviy rahbarga qo'yiladigan...	 0.79%
35	https://documents1.worldbank.org/... operatsiyalari va qarz majburiyatlarini boshqarishni takomillashtirish natijasida pul mablag'lari va ... va aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.	 0.79%
36	https://cyberleninka.ru/article/n/ta... by OC Raxmatovna · 2024 — Ushbu keng qamrovli maqola zamonaviy ta'limda iqtisodiyot, menejment va raqamli innovatsiyalarning kesishishini o'rganadi. Unda ta'limni...	 0.79%

Content

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YOSHLARNI TADBIRKORLIKKA JALB ETISH Mualliflar: D.R.Raxmatullayeva- Professional ta'limni rivojlantirish instituti professori (v.b.), P.f.d. (DSc) X.T.Omonova- Xalqaro Nordik Universiteti, "Ta'lim muassasalari boshqaruvi" yo'nalishi 2-kurs magistranti Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda raqamli texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojlarning ortib borishi va uning ahamiyati hamda dolzarbliligi, raqamli texnologiyalari asosida elektron o'quv ta'limi resurslarini rivojlantirish masalalari va uni rivojlantirish aspektlari, elektron o'quv ta'lim shaklini joriy etishning afzalliklari va uning natijalari tahlil bayon etilgan. Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, elektron ta'limi, moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlik, tadbirkorlik kompetensiyasi. Kirish. Hozirgi axborot asrida, har qanday davlatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalar muhim o'rin egallagan bir davrda, jamiyatning yanada barqaror rivojlanishi va taraqqiyotga erishishi uchun raqamli bilim va axborot texnologiyalariga e'tiborni qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, dunyoning ko'pgina davlatlarida, ayniqsa rivojlangan va yuqori darajada rivojlanayotgan mamlakatlarida raqamli iqtisodiyot anchagina tez sur'atlarda o'sib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga murojaatnomalarida 2020 yilni "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinishi va ushbu yilda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda tub burilish yasadi desa mubolag'a bo'lmaydi. "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi"[1]. Respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida olib borilayotgan izchil siyosat natijasidagi rivojlanish ta'lim tizimida ham o'qitishning yangi shakllarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu sababli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim tizimini yuqori sifat darajasida tashkil etish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, har bir mamlakatning dunyodagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy mavqei, uning iqtisodiy o'sishda asosiy omili bo'lib borayotgan intellektual boyligini ta'minlamoqda. Jamiyat rivojining yangi shart-sharoitlari axborotlashgan jamiyat talablariga javob beruvchi zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanib, yangi mutaxassislarni tayyorlashni vazifa qilib qo'yimoqda. Axborot texnologiyalari hayotimizning turli jabhalariga keng va jadal kirib borishi axborotlashgan jamiyatni shakllantirishga ehtiyoj ortib bormoqda. Bunday ehtiyojlarning elektron o'quv platformalar orqali qondirilishi mamlakatimiz ta'lim tizimi jahon andozalariga moslashishining muhim yo'nalishidir. Adabiyotlar sharhi. Ta'lim tizimiga elektron o'quv ta'limni tatbiq etish muammolari bo'yicha bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, A.A.Anderevning ilmiy-tadqiqot ishida masofaviy ta'limning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan, metod, shakl va vositalari aniqlangan. Respublikamizda ham elektron o'quv ta'lim asosida o'qitish muammolari borasida A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, R.R.Boqiev, S.S.Jumanazarov, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, D.M.Sayfurov, N.I.Taylaqov, R.H.Hamdamiy va boshqa olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. A.A.Abduqodirovning ilmiy izlanishlarida masofaviy ta'lim modellari va ularning sinflari hamda malaka oshirishda masofaviy ta'limdan foydalanish imkoniyatlari tadqiq qilingan. N.A.Muslimovning ilmiy-tadqiqot ishida elektron o'quv ta'limining o'quv-metodik majmuasini yaratish bo'yicha tashkiliy-metodik tamoyillari va elektron darsliklarni yaratishga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilgan. Shuningdek, elektron o'quv ta'limining o'qitish sub'ektlari hamda o'quv vositalari o'rtasida yuzaga keluvchi o'zaro, maqsadga muvofiq interfaol aloqalarning innovatsion texnologiyasi ekanligi asoslab berilgan. D.M.Sayfurovning ilmiy-tadqiqot ishida elektron o'quv ta'limini ta'minlovchi axborot- ta'lim muhiti modeli asosida o'qituvchi-tyutorning kasbiy sifatleri gipotetik modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqot ishida masofaviy ta'lim tizimida faoliyat olib boruvchi o'qituvchilarning motivatsion, kongnitiv-amaliy, emotsional sohalar bo'yicha tayyorganligini baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Elektron o'quv ta'limi bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining nazariy-ilmiy asoslarini o'rganish jarayonida shuni kuzatish mumkinki, mazkur soha bo'yicha turlicha manbaalardan masofaviy ta'lim tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. Bu holat masofaviy ta'limning rivojlanishi hamda ta'lim tizimiga joriy etilishining samarasi bilan bog'liq. Tahlil va natijalar. Axborotlashgan jamiyat rivojlanishida zamonaviy o'qitish texnologiyalari va elektron o'quv platformalarning ahamiyati katta. Bu jarayonda bir necha muhim aspektlarni ko'rib chiqish mumkin: 1. Elektron o'quv ta'lim: Ta'lim muassasalarida elektron o'quv ta'lim platformalari, onlayn kurslar va interaktiv o'qitish metodikalari joriy etilishi talab qilinmoqda. Bu talablar talabalarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. 2. Masofaviy o'qitish: Masofaviy o'qitish usullari, ayniqsa pandemiya davrida, jamiyatdagi barcha qatlamlarga ta'lim berish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu usullar talabalarga o'z vaqtida ta'lim olish, ish bilan band bo'lgan yoshlarga esa o'z bilimlarini oshirish imkonini beradi. 3. Raqamli resurslar: Raqamli kitoblari, onlayn seminarlar, vebinarlar va

videoleksiyalar kabi resurslarning mavjudligi bilim olish jarayonini osonlashtiradi. Talabalar bu resurslardan foydalanib, o'z bilimlarini kengaytirishlari mumkin. 4. Interaktiv o'qitish: Interaktiv platformalar va dasturlar orqali o'qitish jarayonini qiziqarli va samarali qilish mumkin. 5. Mahalliy va xalqaro hamkorlik: Ta'lim muassasalari o'rtasida mahalliy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, tajriba almashish va yangi metodikalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. 6. Kasbiy tayyorgarlik: Zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash uchun kasbiy ta'limga e'tibor qaratish, stajirovka va amaliy mashg'ulotlarni ko'proq tashkil etish zarur. Bu talabalarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi. Ushbu yo'nalishlardagi ijobiy o'zgarishlar mamlakatimiz ta'lim tizimini jahon standartlariga moslashtirishga yordam beradi va yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Elektron o'quv o'qitish faqatgina mashg'ulotlar matnigina emas, balki, tarmoqda zarur axborotlarni qidirish, ma'lumotlar almashish, ma'lumotlar bazasiga murojaat etish, internet tizimidagi davriy axborot manbalaridan foydalanishdir. Elektron o'quv o'qitish o'zining xususiyatiga ko'ra, individual o'qish bo'libgina qolmay, o'qituvchi va boshqa o'quvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatini ham rivojlantirishga imkon beradi. Elektron o'quv ta'lim shakli o'quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning asosiy afzalliklari shundan iborat: -ochiq va qulay foydalanish: talabalar va o'qituvchilar uchun har qanday vaqtda va joyda ta'lim resurslariga kirish imkoni yaratiladi. bu, ayniqsa, ish bilan band bo'lgan yoshlar uchun muhim. -kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim: elektron o'quv platformalar orqali kasbiy bilimlar va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus kurslar, vebinarlar va interaktiv modullar taklif etiladi. -mustaqil ta'lim ko'nikmalari: talabalar mustaqil ravishda o'rganish, o'z vaqtida materiallarni qayta ko'rib chiqish va o'z bilimlarini samarali baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. - ijtimoiy inklyuziya: elektron o'quv ta'lim vositalari yosh, malaka, salomatlik yoki joylashgan hududidan qat'iy nazar, barcha uchun teng imkoniyatlar yaratadi. bu, ayniqsa, olis va kam ta'minlangan hududlardagi talabalar uchun muhimdir. -interaktivlik: elektron o'quv ta'lim platformalari interaktiv elementlarni o'z ichiga oladi, bu esa o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. -ta'limning individuallashtirilishi: talabalarning individual ehtiyojlari va qiziqishlariga mos keladigan ta'lim mazmunini tanlash imkoniyati yaratiladi. Ushbu jihatlar elektron o'quv ta'limning samaradorligini oshiradi va uni zamonaviy ta'lim tizimida muhim elementga aylantiradi. Demak, o'quv jarayonini elektron o'quv ta'lim shaklida tashkil etish - ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning turli ko'rinishdagi axborot va kommunikatsiya manbalaridan ochiq va qulay foydalanish, aniq kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini kengaytirish, ta'lim oluvchilarda mustaqil ta'lim ko'nikmasini rivojlantirish, yoshi, malakasi, salomatligi, ish sharoitlari, joylashgan hududiga bog'liq bo'lmagan holda ta'lim olish imkoniyatlarini beradi. Tahlillar asosida, ta'lim jarayonlarida elektron o'quv ta'lim yoshlarning tadbirkorlik-moliyaviy savodxonligini oshirish va o'z o'zini bandligini ta'minlash bo'yicha yagona elektron o'quv platformasi (<https://biznestadbir.uz>) yaratilib, ushbu elektron o'quv platformaning maqsadi yoshlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish va o'z o'zini bandligini ta'minlashga qaratilgan ta'lim orqali tadbirkorlikka yo'naltirishdan iborat. Elektron o'quv platformaning vazifasi esa, yoshlarni tadbirkorlik savodxonligini oshirish orqali kasbga yo'naltirish; yoshlarni tadbirkorlik tafakkuri va savodxonligini oshirish, biznes g'oyalar va biznes rejalar ma'lumotlar bazasi (banki)ni yaratish; yoshlarni tadbirkorlik savodxonligi hamda ularning motivatsiyasini oshirishga qaratilgan masofadan o'qitish; yoshlarda o'z o'zini bandligini ta'minlashga qaratilgan soft skills, hard skills va self menejment kompetensiyalarini rivojlanishiga ko'maklashishdir. Elektron o'quv platformasida yoshlarning tadbirkorlik va moliyaviy savodxonligini oshirish hamda o'z o'zini bandligini ta'minlash yo'nalishlari ikkita yo'nalishga ajratilib, birinchi yo'nalish tadbirkorlik va biznes onlayn kursi, ikkinchi yo'nalish o'z o'zini band qilish yo'nalishlaridan iborat. Elektron o'quv platformasining birinchi yo'nalishi tadbirkorlik va biznes onlayn kursida o'quv modullarning mazmuni va ajratilgan soatlar hajmini belgilashda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun zaruriy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga asoslanildi hamda har bir modul bo'yicha videoroliklar yaratildi hamda uning metodik ta'minoti ishlab chiqildi. Veb portalning ikkinchi yo'nalish o'z o'zini band qilish yo'nalishiga yoshlarning o'z o'zini band qilish orqali daromad topishga qaratilgan hamda kasbga yo'naltirish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslar tashkil etilgan. Bu o'z o'zini band qilish yo'nalishi bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarning ham metodik ta'minoti ishlab chiqilib, qisqa muddatli o'quv kursini muvaffaqiyatli yakunlagan ishtirokchilarga onlayn veb-portal orqali elektron o'quv sertifikatini taqdim etiladi. Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, elektron o'quv ta'lim resurslari zamonaviy ta'limda muhim rol o'ynaydi. Ular yoshlarning axborot texnologiyalari bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarini oshirishga, o'qitish jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, elektron resurslar yoshlarning quyidagi imkoniyatlarini namoyon qilishga yordam beradi: -interaktivlik-talabalarga mustaqil o'rganish imkonini beradi, ular o'z templarida va qiziqishlariga mos ravishda o'rganishlari mumkin. -tadbirkorlik kompetensiyasi-onlayn kurslar va treninglar

orqali tadbirkorlikka oid bilimlarni olish imkonini yaratadi. -resurslarga oson kirish: internet orqali turli manbalardan foydalanish imkoni ta'limni boyitadi. -ta'limni individuallashtirilishi: talabalar o'z ehtiyojlariga mos resurslarni tanlashlari mumkin bo'ladi. Shu sababli, elektron o'quv ta'lim resurslari ta'lim jarayonini samarali va zamonaviy qilishda muhim ahamiyatga ega. Elektron o'quv ta'lim resurslari ko'p jihatdan qulay bo'lib, ta'lim olish jarayonida yoshlarning axborot texnologiyalari kompetentlik darajasini oshirishga, o'qitishning noodatiy usul va vositalaridan foydalanishga, tadbirkorlik kompetensiyasining shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, elektron o'quv ta'lim resursidan foydalanish natijasida yoshlarning axborot maydoni kengayishiga, o'z o'zini rivojlantirib, takomillashtirishga olib keladi. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi, Xalq so'zi 2020 yil 25 yanvar. 2. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarining bilim, ko'nikmalarini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari- dan foydalanish metodikasi. // Monografiya. – T.: TDPU Rizografiya, 2014. 7,5 b.t. 3. Abduqodirov A., Pardaev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – T.: Fan, 2009. 145 b. 4. Raxmatullayeva D.R. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi: Monografiya. –T.: "Lesson press", 2023, – 118 bet. 5. Raxmatullayeva D.R. Professional ta'lim muassasasi o'quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini takomillashtirishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli // Uzlaksiz ta'lim jurnali. – T.: 2022. – 6-son. –B. 34-40. 6. Raxmatullayeva D.R. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tizimli yondoshuv asosida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish // Xalq ta'limi. –T.: 2021, – 5-son. – B. 44-49. 7. Omonova X.T. "Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy yondashuv asosida boshqarishni takomillashtirish" // "Aholi farovonligini oshirishda yoshlar va xotin- qizlarni tadbirkorlik savodxonligini oshirish" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. –T.: 2023, – B.106-110 8. Omonova X.T. Zamonaviy Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvida rahbarning o'rni. // "Ta'limda iqtisodiyot, menejment va raqamli innovatsiyalar: zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. –T.: 2024, – B. 941-944.